

.....

POETIK ASARLARDA SINONIM SO‘ZLARNING USLUBIY BO‘YOQDORLIGI

Salima Jumayeva

Alfraganus universiteti dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilining boy leksik qatlamlaridan biri bo‘lgan sinonimlarning badiiy nutqdagi uslubiy imkoniyatlari tadqiq etiladi. Unda sinonimlarning nafaqat ma’nodosh birliklar sifatidagi xususiyatlari, balki ularning matndagi aniqlik, ta’sirchanlik, obrazlilik va emotsional-ekspressivlikni ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada sinonimik qatorlarda bosh so‘z va unga yaqin ma’noli birliklarning semantik hamda uslubiy farqlari misollar asosida yoritilgan. Shuningdek, sinonimlarning qo‘llanish doirasi, ijobiy yoki salbiy bo‘yoqdorligi, kitobiy va poetik uslubga xos jihatlari ko‘rib chiqiladi. Badiiy asarlarda ijodkorlarning sinonimlardan mahorat bilan foydalanishi natijasida fikrning yanada aniq, obrazli va estetik jihatdan mukammal ifodalanishi ta’kidlanadi. Tadqiqot davomida sinonimlarning badiiy matn mazmunini boyitish, qahramon xarakterini ochish hamda muallif munosabatini ifodalashdagi ahamiyati misollar orqali asoslanadi. Maqola o‘zbek tili stilistik imkoniyatlarini o‘rganishda sinonimlarning muhim lingvopoetik vosita ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: sinonim, sinonimik qator, leksik boylik, badiiy nutq, uslubiy bo‘yoqdorlik, semantik farq, ekspressivlik, lingvopoetika, obrazlilik, poetik uslub, leksik vositalar, o‘zbek tili.

Ma’lumki, “Til badiiy adabiyotda xarakterlar va manzaralar yaratish qurolidir. Shunga ko‘ra, adabiyot – so‘z orqali badiiy tasvirlash san’atidir” [1;159]. Tilning sinonimlarga boyligi esa so‘zga benihoyat ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni talab qiladi. Xususan, sinonimlarning ma’no xususiyatlarini mukammal egallamay turib, nutqning aniqligi, ifodaliligi va ravonligiga erishish mumkin emas. Insondagi lug‘at boyligining kambag‘alligi – fikr ifodasining qashshoqligiga, so‘zlarni o‘rinsiz takror holda qo‘llashga, so‘z ma’nolarining tovlanishlarni ilg‘ay olmaslikka olib keladi. Darhaqiqat, tilimiz sinonimlarga benihoyat boydir. Bu haqda Alisher Navoiy o‘zining “Muhokamat-ul lug‘atayn” nomli risolasida alohida to‘xtalgan.

Tilning sinonimik boyligi katta bir xazinadir. Bu o‘rinda ulkan so‘z san’atkori Maqsud Shayxzodaning quyidagi fikrlari g‘oyat ahamiyatlidir: “Ma’nodosh so‘zlarni o‘rnida ishlatish so‘z san’atkori uchun farz. Masalan, lug‘atlarda odam, kishi, inson sinonim so‘zlardek talqin etiladi. Besh inson keldi emas, besh kishi keldi deyiladi, sen kishi emassan, deyilmaydi, sen odam emassan deyiladi. Kishilik shunday bo‘ladi emas, odamgarchilik shunday bo‘ladi deyiladi. Tilimizning ana shunday tovlanib turishida shoir uchun ne-ne bitmas tunganmas xazinalar bor...” [2;206].

Sinonimlar, albatta, qo‘shimcha ma’no nozikligi, emotsional va ekspressiv bo‘yoqdorligi, qo‘llanish doirasi va bir qator xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Bunday xususiyatlar sinonimlarning juda katta uslubiy imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Sinonimlarning eng muhim uslubiy vazifasi fikrni aniq ifodalashda namoyon bo‘ladi. Bunda sinonimik qatordagi birinchi so‘z bosh so‘z (asosiy so‘z) hisoblanadi. Bosh so‘z, odatda, hozirgi adabiy tilga mansubligi, emotsional bo‘yoq, uslubga ko‘ra betarafligi va boshqa muayyan xususiyatlari bilan shu qatordagi ayrim so‘zlardan farqlanadi, hamda, xuddi ayni shu xususiyatlariga ko‘ra tilda boshqalariga nisbatan keng qo‘llanadi. Masalan, chiroyli, go‘zal, husnli, husndor, xushro‘y, ko‘hli, zebo, suluv, sohibjamol sinonimik qatorda chiroyli so‘zi shunday belgilarga ega va bosh so‘z hisoblanadi. Qolgan so‘zlar esa har biri o‘ziga xos belgi-xususiyati bilan boshqalaridan farqlanadi: go‘zal so‘zi belgini kuchli (yuqori) daraja bilan ifodalaydi; barno, zebo so‘zlari ko‘proq kitobiy uslubga ega, suluv so‘zi esa nisbatan kam qo‘llanadi va hokazo. Nutqda sinonimlarning har biridan ularga xos belgi, xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Biz atrofimizdagi predmetlar va voqea-hodisalarni, ularning xususiyatlarini, belgilarini, xarakterini, holatlarini nozikligi, o‘ziga xosligi bilan anglaymiz. Ularni ifodalashda esa eng mos va ma’qbul so‘zlardan foydalanamiz. Bunda, albatta, sinonimlar juda qo‘l keladi. Ular ana shu borliq-hodisalarni tasvirlashda har bir “elementar” sifatlarni ham o‘zida aks ettiradi. Ayni paytda muayyan uslubiy bo‘yoqqa ham ega bo‘ladi. Masalan, professor Azim Hojiyev tomonidan tuzilgan “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”dagi dominantasi “yuz” so‘zi bo‘lgan sinonimik qator haqidagi maqolada quyidagilar qayd etiladi: yuz, bet, aft, bashara, chehra, jamol, diydor, oraz, uzor, ruxsor. Kishi boshining old qismi, old tomoni. Bet so‘zi ma’nosi qo‘llanishi bilan yuz

so‘ziga juda yaqin bo‘lib, yuz nisbatan salbiy ottenkaga ega. Aft so‘zi bet so‘ziga nisbatan salbiy ottenkaga ega. Bashara so‘zida salbiy ottenka aft so‘zidagiga nisbatan ham kuchli. Chehra ijobiy ottenkaga, jamol so‘zida ijobiy ottenka chehra so‘zidagiga nisbatan ham kuchli bo‘lib, bu so‘z asosan poetik uslubga xos. Jamol so‘zi “husn, chiroy” ma’nosida ham qo‘llanadi. Diydor so‘zi ko‘rishmoq, to‘ymoq kabi bir- ikki so‘z bilangina qo‘llanadi. Uzor, oraz, ruxsor eskirgan, kitobiy...” [2;210].

Anglashiladiki, sinonimik qatorda keltirilgan o‘nta so‘zning har biri alohida-alohida uslubiy salmoqqa ega. Ularning biri o‘rnida ikkinchisini bab-baravar qo‘llash mumkin emas. Badiiy nutqda eng ko‘p qo‘llaniluvchi so‘zlar sinonimlardir. Adiblar o‘zbek tilining so‘z boyligidagi rang – barang sinonimlardan yangi estetik tushunchalarni ochishda foydalanadi. Ular bir -biridan yo ma’no ottenkasi bilan, yo uslubiy buyoq bilan, yoki har ikki xususiyat bilan farqlanadigan sinonimlardan ustalik bilan foydalandilar. Fikrni aniq va yaqqol ifodalash, mazmunni quyuq misrada bayon etish uchun uni o‘z asarlarida saylab ishlatdilar. O‘zbek she’riyatida birdan ortiq so‘zning o‘zaro semantik aloqaga kirishishidan hosil bo‘lgan sinonimlar ko‘plab uchraydi. Zero, sinonimlar tilning tasviriy vositalaridan biri sifatida matnga ta’sirchanlik baxsh etadi. Masalan, ishq va muhabbat so‘zlari sinonim bo‘lib, ular ma’no qirrasiga ko‘ra farq qiladi, ya’ni belgi ishq so‘zidan muhabbat so‘zidagiga nisbatan kuchli. Ularning yonma-yon qo‘llanishi turlicha uslubiy ta’sirga ega:

*“Tashna yashadik biz mehrga mutloq,
Ishqqa, muhabbatga tashna o‘tdik biz” [3;83]
“ Balo, ofatlarni engib o‘rgangan,
Muhabbatning ulug‘, yuragi kengdir” [4;51]*

Yoki: *Yomg‘irdan so‘ng yulduzlar chaqnab, nozlanar, karashma, ishvali* [7; 56].

Yoki: *“...Unsin elkasiga maymun mingan daqiqada naqadar qo‘rqqan bo‘lsa, hozir shu qadar tinchidi, xotirjam bo‘ldi...” [5;208].*

Sinonimlarning qo‘llanilishi va uslubiy bo‘yoqdorliligi bu bulan cheklanib qolmaydi. Har bir sinonimik qatordagi so‘zlar o‘ziga xos bir tizim sifatida o‘zaro doimiy aloqaga ega. Shuning uchun sinonimi mavjud bo‘lgan har bir so‘z nutqda qo‘llanar ekan, u albatta qatordagi boshqa so‘zlar bilan qiyoslangan, bog‘langan holda

tushuniladi, qabul qilinadi. Masalan, quyidagi to'rtlikdagi qo'zigul va nayson so'zlari o'zaro sinonim bo'lib, ular mazmun-mohiyatiga ko'ra bir xil ma'noni anglatib keladi

*Qo'zigul isini taratar, ayo,
naysonlar atrini ichadi g'ulg'ul.*

Men seni sog'indim yomg'irli

Dunyo, men seni sog'indim Qo'zigul! [7; 47]

Ma'lumki, ekspressiv bo'yoqdor so'zlar o'zining neytral sinonimlariga nisbatan anglanadi. Masalan, "...Devor ustida turgan o'n ikki yoshlardagi bir qiz devordan kesak ko'chirib olib, Mulla Norqo'ziga o'qtaldi: hu, o'l, turqing qursin!..."[5;106] Parchadagi turq so'zining bo'yog'ini uning neytral sinonimi yuz so'zi bilan fikran qiyoslash orqali his qilish mumkin.

Ma'lumki, qaramoqning sinonimi bo'lgan boqmoq Toshkent shevasiga xos so'z. U adabiy tilda kam qo'llangan. Biroq G'afur G'ulom shu sheva vakili bo'lgani uchun ham bu so'zdan ko'p foydalangan va uning adabiy tildan o'rin olishiga o'z hissasini qo'shgan:

Ariq limmo – lim tiniq suv mavji

Suqlanib olamning husniga boqar [6;11]

Xulosa qilib aytganda, sinonimlar badiiy nutqning eng ko'p qo'llanuvchan tasviriy vositalardan biri sanaladi. Adib va shoirlar sinonim so'zdan o'zlari yaratgan obrazning qiyofasini kitobxon ko'z oldida gavdalantirish va uning ichki kechirmalarini har tomonlama mukammal ifodalash uchun samarali qo'llaydilar. Binobarin, sinonimlar asarga sayqal berishda, fikrni jozibali ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent: O'zbekiston, 2002.
2. Qo'chqorov U. Sinonim so'zlar va ularning ba'zi bir xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1994.
3. Oripov A. Tanlangan asarlar. 4 jildlik.1-jild.// She'rlar va dostonlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 2000.
4. Ikrom Otamurod. Tavr. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
5. Botirova, S. I. (2024). AESTHETIC PERCEPTION AND GENRE HARMONY. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(05), 80-85.

6. Botirova, S. I. (2024). LANDSCAPE IN SHORT ART. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 5(06), 38-44.
7. Isamiddinovna, B. S. THE STREAM-OF-CONSCIOUSNESS TECHNIQUE IN NONTRADITIONAL NOVELLAS: NEW STYLISTIC EXPLORATIONS IN UZBEK LITERATURE.
8. Botirova, S. (2025, November). *AKADEMIK LITSEYDA*
9. O'ZBEK TILI O 'QITISHNING AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY USULLARI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 01).
10. RAHMATOV, M. (2025). E. VOHIDOV SHE'RIYATIDA MUROJAAT SHAKLLARINING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI. «ACTA NUUZ», 1(1.12), 339-342.
11. TURDIYEVA, Y. O 'ZBEK ADABIYOTIDA BADIY USLUB HODISASI.
12. Turdiyeva, Y. (2024). BADIY USLUB INDIVIDUALLIGI (LUQMON BO'RIXONNING "JAZIRAMADAGI ODAMLAR" ROMANI ASOSIDA). *Science and innovation*, 3(Special Issue 51), 187-190.